MIRZACHO‘L VOHASI AHOLISINING IJTIMOIY MUNOSABATLARI

Mirzaliyev Ulug‘bek Begmurzayevich, Guliston davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar va san’atshunoslik fanlar” kafedrasi dosenti,
Sharipova Adiba, Guliston davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar va san’atshunoslik fanlar” kafedrasi 29-22 guruh talabasi.

Annotatsiya. Mirzacho‘l vohasi aholisninig ijtimoiy munosabatlari jumladan urf-odatlari qarindoshchilik aloqalari va taomlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Mirzacho‘l, qarindosh, turkiy xalq, voha, millat, urug‘, o‘zbek, til, viloyat, turk, qipchoq, aholi.

СОЦИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ ЖИТЕЛЕЙ МИРЗАЧОЛЬСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. Сведения об общественных отношениях жителей Мирзачольского оазиса, включая традиции, родственные связи и питание.

Ключевые слова: Мирзачол, родственник, тюркский народ, оазис, нация, род, узбек, язык, регион, тюрк, кыпчак, население.

SOCIAL RELATIONS OF MIRZACHOL OASIS RESIDENTS

Abstract. Information about the social relations of Mirzachol oasis residents, including traditions, kinship relations and food.

Keywords: Mirzachol, relative, Turkish people, oasis, nation, clan, Uzbek, language, region, Turk, Kipchak, population.

Dolzarbligi. O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, mintaqaning turkiy xalqlari nafaqat tili va tarixi bir, balki kundalik turmush tarzi, maishiy hayoti, urf-odatlari, umuman olgand,a etnomadaniyatida umumiylikka ega. Buni Mirzacho‘l vohasi aholisi, ayniqsa, vohaning o‘zbek, qozoq va qirg‘iz aholisi orasida mavjud oila va qarindosh-urug‘chilik atamalari ham tasdiqlaydi.

Bu borada avvalo shuni aytib o‘tish kerak, mintaqa turkiy xalqlari tilida uchraydigan qarindosh-urug‘chilik atamalari asosan turkiy negizda, kichik bir qismi esa forsiy, arab va mo‘g‘ul tiliga xos so‘zlardan tashkil topganligi ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, o‘zbek, qozoq va qirg‘izlarda uchraydigan atamalar qadimgi turkcha va bugungi turkiy tillarning ko‘pchiligida saqlanib qolgan so‘zlar bilan umumiylikka ega. Jumladan, “ota”, “ona”, “o‘g‘il”, “qiz”, “aka”, “uka”, “opa”, “singil” kabi oila ichi va “tog‘a”, “jiyan”, singari yaqin qarindoshlar bilan bog‘liq so‘zlar turkiy tillarning deyarli barchasida bir xil bo‘lib, negizi qadimgi turkcha so‘zlarga borib

taqaladi. Shuningdek, “amaki”, “amma”, “xola” kabi so‘zlar turkiy tillarning bir qismida, xususan, islom diniga e’tiqod qiluvchi turkiy xalqlarda uchrab, ularning kelib chiqishi arab tiliga aloqadordir. Shu bilan birga, “bobo”, “momo” kabi atamalar forsiy tildan o‘zlashgan deb qaralib, so‘zlashuv tilida deyarli qo‘llanilmay, adabiy matnlarda ishlatiladigan “birodar”, “padar” atamalari ham forsiy tildan o‘zlashgan so‘zlar sirasiga kiritiladi. Bundan tashqari, “og‘a” (“aka”?), “ovsin”, “quda”, “quda-anda” so‘zlari mo‘g‘ulchada o‘tgan so‘zlardir [1. 1-12].

Mirzacho‘l vohasi o‘zbeklari tilida qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq so‘zlar va ularning mazmun-mohiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, avvalo shunga urg‘u berib o‘tish kerak, ularning katta qismi o‘zbek adabiy tili va shevalaridagidan katta farq qilmasligi anglashiladi. Shu bilan birga, voha aholisi orasida qarindosh-urug‘chilik atamalarining ayrim o‘ziga xosliklari ham borligiga duch kelamiz. Bunday holat vohaning qozoq va qirg‘iz aholisi tiliga ham xosdir.

Metodlar va o‘rganilish darajasi. “**Qarindosh**” so‘zi ilk bor Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it-turk” asarida (XI asr) uchrab, “bir qorindan tug‘ilgan ikki bola” ma’nosidadir [2. 386]. Qarindosh-urug‘ ma’nosidagi so‘z qadimgi turklarda “**urug‘**”, “**urug‘-turig‘**”, shunga yaqinroq so‘zlar esa “**qadash**” – “birodarlik, yaqinlik”, “**qaңdash qadash**” – otasi bir aka-ukalar”, “**uya**” – birodar, yaqin” shaklida ishlatilgan. O‘zbek tilida ushbu atamalarning bir qismi qadimgi turkchadagi kabi saqlanib qolgan bo‘lsa, bir qismi esa ma’no yoki fonetik jihatdan birmuncha o‘zgarishga uchragan. Bu holat Mirzacho‘l vohasi aholisi orasida qo‘llaniladigan qarindosh-urug‘chilik atamalari bilan tanishib chiqilganda ham ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilidagi “qarindosh” so‘zi ko‘proq qadimgi turkcha “urug‘”, “urug‘-turig‘” so‘zlari bilan bir ma’noda bo‘lib, ayrim hollardagina “Devonu lug‘at-it-turk”dagi kabi “bir qorindan tug‘ilgan ikki bola” ma’nosida ishlatiladi. Qirg‘izlarda ham “qarindash” so‘zi o‘zbek tilidagi bilan deyarli bir xil ma’noda “qon-qarindosh”, “qarindosh-urug‘” ma’nosida ishlatilishi bilan birga ko‘p hollarda “qiz jiyan”, “singil” (opaning emas, akaning o‘zidan kichik singlisiga nisbatan) ma’nosida qo‘llaniladi [3.356]. Qozoq, no‘g‘oy kabi qipchoq turkchalarida esa “**qaro‘ndas**” so‘zi “tug‘ishgan aka-ukalarning kichik yoshdagi qizlari”, “singil” ma’nosiga ega bo‘lib, shu jihatdan boshqa turkiy tillardan birmuncha farqlanadi. Shu bilan birga, ushbu so‘zning birmuncha farqli shakli Onado‘li turkchasida “**qiz qardash**” so‘zi “singil” ma’nosi qo‘llanilishi “qarindosh” so‘zining qadimgi turkcha va boshqa turkiy tillardagi ma’nosi qozoq va Onado‘li turklari tilida u yoki bu darajada saqlangani ko‘rsatadi.

Biroz quyida birmuncha chuqurroq ko‘rib o‘tiladiganidek, Mirzacho‘l vohasi o‘zbeklarida “singil” so‘zi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it-turk” (XI asr) asarida qayd etilgan “***Siңil*** *– erkaklarning o‘zidan kichik qiz qardoshi*” ma’nosida saqlanib qolgani diqqatga sazovordir. Aslida “singil” so‘zi Mahmud Koshg‘ariydan qariyb besh yuz yil oldin – Turk xoqonligi (522-744) davrida ham ayni shu ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, Jumladan, Kul Tegin bitiktoshida (732) xoqonlikka tobe qirg‘izlar hukmdori haqida gap borganda Bilga xoqon tilidan shu tariqa ma’lumotlar aks etgan: «*Bars bek edi. Xoqon* [*deb*] *bunda biz ot* (*unvon*) *berdik. Singlim qunchuy* (*xoqonzoda*)*ni* (*xotinlikka*) *berdik*».

Mirzacho‘l vohasi aholisi orasida “qarindosh”, “qarindosh-urug‘” ma’nosida “og‘ayin”, “og‘ayni” atamalari ishlatilishi ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Zomin tumanidagi qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi “og‘ayni” (ag‘ayno‘) so‘zi “qarindosh” va “o‘rtoq” ma’nosida ishlatiladi. O‘zbekistonning bir qator viloyatlarida bu so‘z “qarindosh” ma’nosida birmuncha keng tarqalgan [4.324]. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi va unga qo‘shni tumanlarda esa “og‘ayin” so‘zi faqatgina “qarindosh” ma’nosida qo‘llaniladi. Qozoq tilida ham “ag‘ayin” so‘zi shu ma’nodadir. Bu atama ko‘proq qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi orasida tarqalgan bo‘lib, ham vohaning mahalliy aholisi, ham boshqa vohalardan ko‘chib kelgan aholi tomonidan ishlatiladi. “Og‘ayin” yoki “og‘ayni” so‘zi o‘zbek adabiy tilida, xususan, Farg‘ona vodiysidan ko‘chganlar orasida “do‘st, o‘rtoq” ma’nosida bo‘lib, shunga o‘xshash holat Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz kabi yirik shaharlar o‘zbek aholisi orasida ham uchraydi.

O‘zbek qipchoq shevalaridagi ayrim o‘ziga xosliklar uning bugungi o‘zbek adabiy tilidan ko‘ra boshqa turkiy tillarga yaqinligini ko‘rsatadi. chunki qipchoq lahjasi shevalarida o‘zbek adabiy tilidagidan farqli tarzda ataladigan qarindoshlik atamalari ko‘pgina turkiy tillarda aynan ushbu lahjadagidek qo‘llanadi. Zomin guruh shevalari bilan tanishib chiqilsa, bu holat yana-da teranroq ekani ko‘zga tashlanadi. Tadqiqotchilarning yozishicha, ushbu tumanda ayrim qarindoshlik atamalari umumqipchoq lahjasidagidan ham fonetik jihatdan farq qiladi, ayrimlari esa, aksincha, turkiy tillarning ko‘pchiligida uchraydigan ko‘rinishda qo‘llaniladi, biroq o‘zbek adabiy tilida bu tarzda ishlatilmaydi. Zominliklarda qarindoshlarni imkon boricha yaqinlashtirish, har bir qondoshning o‘rni va qarindoshlik darajasini aniq belgilab qo‘yishga intilish kuchli. Chunonchi, zominliklarda otasining ukasi hech qachon “amaki” deb atalmaydi, balki “aka” deb ataladi. Otaning akasi ham “amaki” emas, balki yo “bava” yoki “kattata” (katta-ota) deb yuritiladi [5. 199]. Bunga o‘xshash an’ana Qashqadaryo viloyatining qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi tumanlarida – Chiroqchi, Qamashi, Dehqonobod va yana bir qanchasida uchrab, “aka” atamasi tug‘ishgan aka-ukalar orasidagina emas, amakilarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Ya’ni aka ukasining bolalari uchun “buva” hisoblanib, akaning bolalari akaning ukasi tomonidan “uka” deb aytiladi. O‘zbeklarning qarluq lahjasida so‘zlashuvchi aholi orasida bunday holatga duch kelinmaydi. Ularda akaning bolalari uchun “jiyan” atamasi ishlatiladi. Qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilar “jiyan” deb faqatgina o‘z opasi va singlisining bolalarini atashadi.

Bu holat Mirzacho‘l vohasiga mamlakatimizning turli hududlaridan ko‘chib kelgan aholi orasida ham uchrab, kelib chiqishi Farg‘ona vodiysi bilan bog‘langan aholi orasida “jiyan” so‘zi ham aka-ukaning, ham opa-singilning bolalari uchun qo‘llaniladi. Jizzax, Samarqand va Qashqadaryodan ko‘chgan aholi esa aka-ukaning bolalari uchun “jiyan” so‘zi deyarli ishlatmaydilar.

O‘zbekistonning asosan shimoliy va markaziy hudularida – Xorazmda, Jizzax va Sirdaryo viloyati o‘zbeklarida farzandlar o‘z otasiga “aka” deb murojaat qilishlari ko‘zga tashlanadi. Odatda otasi bor odam farzand ko‘rsa, uni o‘z bolalari “aka” deb atashgan. Qozoqlarda ham otani ko‘p hollarda “äke” deb atash [6. 74] ana shu an’ana bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Aslida qadimgi turkchada “**qang**”, “**ata**” ko‘rinishlarida bo‘lgan “ota” atamasi o‘rta va so‘nggi o‘rta asrlarga kelib, ayrim turkiy xalqlarda “dada” “aka”, “ake”, “baba” (bobo) shakllarini ola boshlaydi. O‘rxun bitiktoshlarida “qang” shaklida uchraydigan ushbu atama Mahmud Koshg‘ariy davriga kelganda turkiy tillarning ko‘pchiligida iste’moldan chiqib ketadi. Faqatgina Koshg‘ariy bu so‘zni quyidagi so‘z tarkibida berib o‘tish ham buni tasdiqlaydi: “**Qaңdash** – qaңdash – qadash – otasi bir aka-ukalar. Maqolda shunday kelgan: *Qaңdash quma urur, igdish o‘ru tartar* – otasi bir bo‘lganlar oralaridagi adovat sababli bir-birlari bilan kelishmaydilar. Onasi bir bo‘lganlar oralaridagi do‘stlik sababli bir-birlariga yordam beradilar”.

Bugungi kunda turkman tilida shu ma’noda “qaqa” so‘zi uchrab, uni qadimgi turkcha “qang”ning fonetik o‘zgargan ko‘rnishi deb taxmin qilish mumkin.

Rivojlangan o‘rta asrlarda “ota” so‘zi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan “**ata** – ota” deb keltirilishi bilan birga, alloma uning “dada” varianti ayrim turkiy elatlarda uchrashiga urg‘u beradi: “**Dädä** – dada, ota (o‘g‘uzcha)” [7. 239]. Shu o‘rinda o‘g‘uz turkchasiga xos so‘z deb keltirilgan ushbu so‘z O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida “dada” so‘zi “ota” ma’nosida keng qo‘llanilishini aytib o‘tish kerak [8. 339]. Mamlakatimizning deyarli barcha viloyatlarida bo‘lgani kabi keyingi yillarda Mirzacho‘l vohasida ham “ota” atamasining o‘rnini “dada” so‘zi egallayotgani guvoh bo‘lamiz.

Qadimgi turk oilasida katta o‘rin tutgan “ona” so‘zi “ana” (qalin “a” bilan), “anne” ko‘rinishlarida uchrab, qadimgi turkchada bu so‘z “o‘g”, “ana” shakllarida bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariy davriga kelganda esa “ana” (qalin “a”) so‘zi keng yoyilgan: “**Ana** – ona” [9. 119]. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy “ona” so‘zining “aba” ko‘rinishida ham ishlatilishini yozib, bu so‘z bilan bog‘liq quyidagicha ma’lumot keltirib o‘tadi: “Aba – ona (o‘g‘uzcha). Qarluq turkmanlari qattiq “p” bilan “apa” deydilar”. O‘zbek tilining ayrim shevalarida, shu jumladan, Mirzacho‘l va Jizzax vohalarida ham “ona” ma’nosida “opa”, “apa”, “äbä” so‘zlari ishlatilib, bu jihatdan ayrim qadimgi turk shevalariga yaqinlik kasb etadi.

“**Ko‘ku** – xola. Bu so‘zning “ko‘kuy” shakli ham bor. To‘g‘risi shudir. *Ko‘kuyum keldi* – xolam keldi, kabi”. Qozoq tilidagi “amaki”, “ota” ma’nosidagi mohiyatan ancha farqlilashgan “ko‘ke” so‘zini hisobga olmaganda, bugungi turkiy tillarda bu so‘z deyarli saqlanmagan. Uning o‘rnida Anado‘li turkchasida “teyze” (tayza), qirg‘izchada “tay-eje” so‘zlari ishlatilsa, o‘zbekchada arabchadan o‘zlashgan “xola” so‘zi qo‘llaniladi. Aslida eski turkiy an’anaga ko‘ra, opa-singillarning bolalari onasining singlisi yoki opasini “xola” deb emas, “apa” (“opa”) deyishgan. Qozoqlarda bu so‘z “äpke” shaklida hozirgacha qo‘llanilmoqda.

Qadimgi turkiylarda qarindosh-urug‘chilik atamalari orasida tug‘ishgan qarindoshlik – “aka-ukalik” va “opa-singillik” bilan bog‘liq atamalar qadrlangan bo‘lib, bu holat hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini saqlab keladi. Shuningdek, erkak kishi uchun ayolining aka-ukalari va opa-singillari yaqin sanalib, bu borada ko‘plab atamalar paydo bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariy bu borada quyidagicha ma’lumot keltiradi: “**Yurch** – xotinning o‘g‘il ukasi. Erning aka-ukasi bilan xotinning aka-ukasini farq qilib shunday deyiladi. Erning kichik ukasiga “ini” deyiladi, yoshi katta bo‘lsa “ichi” deyiladi. Erkaklarning o‘zidan kichik qiz ukasiga “siңil” deyilib,

o‘zidan katta qiz birodariga “äkä” deyiladi”. Mahmud Koshg‘ariy “**Ichi** – yoshi katta birodar, aka” deb ochilagan bu atama esa hozirgi turkiy tillarning ko‘pchiligida unutilgan.

Hozirgi kunda Mirzacho‘l vohasida “uka” atamasining sinonimi sifatida ayrim o‘rinlarda “ini” so‘zi ham qo‘llanilib, bu so‘zdan yasalgan “qayni” (qayin-ini) so‘zi birmuncha faol ishlatiladi. Mahmud Koshg‘ariyda “uka” so‘zi uchramaydi, biroq “ini” so‘zi ancha qadimiydir. Alloma “**Ini** – ini, kichik birodar, uka” deb keltirib o‘tadi. Bu so‘z vohadagi qozoq va qirg‘izlarda o‘zbeklarga nisbatan ancha faol qo‘llaniladi.

Mahmud Koshg‘ariy “opa” ma’nosidagi so‘z bo‘yicha quyidagicha ochiqlama berib o‘tadi: “**Acha** – aka, ya’ni katta qiz (opa) ma’nosida. Bu yerda “ch” harfi “k”ga aylangan”. Bu so‘zning qirg‘izchadagi shakli “eje” bo‘lib, hozirgi kunda ham xuddi qadimgi turklardagi kabi ma’noda “opa” o‘rnida qo‘llaniladi. Hatto bu so‘z bilan bog‘liq quyidagicha maqollar ham shakllangan: *Agani ko‘rup ini o‘so‘t, ejeni tuurap siңdi o‘so‘t* – “Akani ko‘rib ini o‘sadi, opaga taqlid qilib singil o‘sadi” [10. 444].

Yuqorida qisqacha to‘xtalib o‘tilganidek eng qadimgi turkiy qarindoshlik atamalaridan biri “singil” bo‘lib, o‘g‘uz lahjasida so‘zlashuvchi Onado‘li turklari, ozarbayjon va turkmanlardan boshqa turkiy xalqlarning ko‘pchiligida bu so‘z saqlanib qolgan. O‘rxun bitiktoshlari (VII – VIII asrlar), “Devonu lug‘at-it-turk” (XI asr) asarlarida bu so‘z uchrab, Koshg‘ariy bu atamaga “**Siңil** – erkaklarning o‘zidan kichik qiz qardoshi, ukasi” deb izoh bergan. Qizig‘i shundaki, O‘zbekistoning ayrim viloyatlarida bo‘lgani kabi Mirzacho‘l vohasida ham bu so‘z “singil”, “singli” ko‘rinishlarida uchrashi bilan birga “uka” shaklida ham onda-sonda ishlatilgan holatlarga duch kelamiz.

Qadimgi turkchada “buvi”, “momo” ma’nosida “achi” so‘zi uchrab, Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zga quyidagi ochiqlama beradi: “**Achi** – keksa xotin. Barsag‘anliklar lug‘atida”. Bundan ko‘rinadiki, “achi” so‘z o‘sha davrlarda nisbatan tor doirada qo‘llanilgan atama bo‘lgan. Ayrim o‘zbek shevalarida, xususan, Namangan viloyatida “acha” so‘zi “buvi”, “yoshi ulg‘aygan ayol kishilarga murojaat qilinganda qo‘llaniladigan so‘z” ma’nosidadir. Qashqadaryo viloyati Kitob tumani Omag‘on qishlog‘ida “aja” (äjä) “onaning onasi”, shu tumandagi Bashir qishlog‘ida “buvining onasi” ma’nosida qo‘llaniladi [11. 124]. Qozoq tilida “äje” – bolaning otasining, shuningdek, onasining onasi ma’nosini bildiradi. Qirg‘iz tilida “eje” so‘zi “opa” ma’nosida qo‘llanilishi bilan birga, shu va shu so‘z bilan bog‘liq “ejeke” ko‘rinishida “yoshi katta ayollar”ga nisbatan ishlatiladi. Qizig‘i shundaki, Namangan viloyatining bir qator tumanlari (Namangan, Pop, Uychi)da “eche-qiz” (ächä) “turmushga chiqmasdan (nikohsiz) bola tug‘ib, ota-onasinikida yashayotgan qiz” uchun qo‘llanilib, uning ma’nodoshi “momo-qiz”dir. Bundan ko‘rinadiki, ayrim o‘zbek shevalarida uchraydigan “acha” so‘zi qadimgi turkcha “buvi” ma’nosidagi “achi” bilan bitta negizdandir.

Tadqiqot natijalari. Qadimgi turkiy yaqin qarindoshlik atamalaridan biri “tag‘ay”, “tag‘oyi” so‘zi bo‘lib, Mahmud Koshg‘ariy “**Tag‘ay** – tog‘a” shaklida keltirib o‘tadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining ilk o‘zbekcha tarjimasini amalga oshirgan S.Mutalibov bu so‘zni “amaki” deb yanglish

o‘girgan. Aslida bu so‘zning arabcha izohida “xalun”, ya’ni “ona tomondan erkak qarindosh” degan mazmunda keltirib o‘tgan. Turkiy tillarning ko‘pchiligida “tog‘a”, “doyi” shakllarida ishlatilgan ushbu atama qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi qozoq, no‘g‘oy va qoraqalpoqlarda “nag‘ashi” ko‘rinishida uchrashi diqqatga sazovordir. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, qozoq tilida “nag‘ashi” atamasi keng tarqalganiga qaramay Mirzacho‘l vohasi qozoqlari bu atama o‘rnida ko‘pincha “tag‘a” so‘zini ishlatadilar. Bu vohadagi o‘zbek va qirg‘izlarning ta’siri bo‘lishi ham mumkin. Aslida “nag‘ashi” atamasi mo‘g‘ulcha bo‘lib, bu tilda “nagats” (nag‘ach) atamasi “tog‘a” ma’nosidadir. Shunga o‘xshash qirg‘iz tilining boshqa shevalarida “tay” so‘zi ona tomonidan qarindoshlar ma’nosida keng qo‘llanilsa, qirg‘izchaning janubiy lahjalarida, xususan, Tyanshan va Zomin qirg‘izlarida bu so‘z o‘zbekchadagi kabi “tag‘a” ko‘rinishida ifodalanadi.

Mirzacho‘l vohasida ham O‘rta Osiyoning bir qator hududlarida bo‘lgani kabi qarindosh-urug‘larga, ayniqsa, yaqin qarindoshlarga nisbatan hurmat ko‘rsatish, yaqin olish, erkalash mohiyatida ayrim atamalarga “-ch”, “-sh” kabi qo‘shimchalar qo‘shib ishlatish holatlari uchraydi. Masalan, yosh qiz bolalarga nisbatan “anach”, “anash”, kichik o‘g‘il bolalarga “otach”, opaga nisbatan “opach” kabi. Qizig‘i shundaki, qadimgi turklarda bu an’ana ancha keng yoyilgan bo‘lib, Mahmud Koshg‘ariyda uning quyidagicha shakllariga duch kelamiz:

1) “**Ekach** – o‘zining ortiq ziyrakligi bilan odamlarga xuddi o‘z singlisidek tuyuluvchi yosh qiz; bu so‘z yosh qizlarni sevish, erkalash uchun qo‘lladi”;

2) **“Anach** – ona qiz, ya’ni o‘zining ziyrakligi bilan hammaning onasidek hisoblanuvchi yosh qiz. Bu so‘z qizlarni erkalatish uchun aytiladi”;

3) “**Atach** – xuddi katta kishilardek o‘zini ulug‘sifat (keksa-qari) qilib ko‘rsatuvchi bolaga “atach o‘g‘ul” deyiladi.

Shunga o‘xshash qadimgi turkchada qarindosh-uruqqa mehr ko‘rsatib, “-qi” qo‘shimchasi qo‘shib aytilgan hollar ham kuzatiladi. Mahmud Koshg‘ariy “**Ataqi** – otaginam, otajonim ma’nosidagi mehribonlikni bildiruvchi so‘z” deb ochiqlaydi. Ehtimol, Toshkent va Chimkent o‘zbek shevalaridagi “xola yoki amma”, “kelinoyi” ma’nolaridagi “opoqi” atamasida ham shunga o‘xshashlik bo‘lishi mumkin.

Bo‘la – opa-singillarning bolalari, xolavachcha. Ayrim hududlarda aka-ukalarning bolalari – amakivachchalar bu so‘zni qo‘llanganliklari ko‘zga tashlanadi (Qashqadaryoning ayrim tumanlarida, Jizzax viloyati G‘allaorol tumanlarida, Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbeklar yashaydigan Qoramurt qishlog‘ida) [12. 337].

Mirzacho‘lga Zomindan ko‘chib kelgan aholi orasida bu so‘z qo‘llanilib, opa-singillarning bolalari bir-birlariga “bo‘la” deb murojaat qilishadi. Zominda opa-singillarning bolalar uchun ishlatiladigan bu so‘z ancha ardoqli bo‘lib, tadqiqotchilarning yozishicha, so‘zlashuv odobi unchalik ham yumshoq bo‘lmagan Zominda bo‘lalar, yoshi katta-kichikligidan qatiy nazar, o‘zaro “siz”lashib so‘zlashadilar. Qirg‘iz, qozoq, no‘g‘oy va hokazo kabi turkiy tillarning qipchoq

lahjasida so‘zlashuvchi xalqlar kabi o‘zbek qipchoqchasida “bo‘la” so‘zi keng tarqalgan qarindosh-urug‘chilik atamasidir.

Mirzacho‘l vohasi aholisining qarindosh-urug‘chilik atamalarining sezilarli bir qismini nikoh yo‘li bilan qon-qarindosh tutinganda ishlatiladigan so‘zlar tashkil etadi. Bu holat ham o‘zbek, hakm qozoq va qirg‘iz aholi uchun xosdir. Ular orasida “kuyov” va “kelin” qarindoshlari bilan bog‘liq so‘zlar keng tarqalgan.

Mahmud Koshg‘ariy “kuyov” so‘zini “**Kuzagu**” shaklida keltirib, quyidagicha ochiqlama beradi: “**Yufush** – qarindoshlari mol va kiyim bilan yordam berish. Lekin, asosan, kelinlar to‘yanasiga qo‘llanadi. *Yufushlig‘ kelin* ***kuzagu yafash*** *bo‘lur* – yaqinlari tomonidan to‘yanalar bilan hurmatlangan kelin kuyovi tomonidan ham hurmatlanadi” [13. 18].

Shuningdek, voha aholisida “quda-anda”chilik bilan bog‘liq so‘zlar va urf-odatlar ancha kenn yoyilgan. Ayniqsa, “qayin” so‘ziga alohida e’tibor berilib, bu an’ana ancha qadimiy ildizlarga ega. Mahmud Koshg‘ariy bu borada quyidagicha yozadi: “**Qaǯo‘n** (qayin) – qayin-ona, qayin-ota, qayin. Qipchoqlar “z” bilan talaffuz qiladilar. Maqolda shunday kelgan: “*Qadash temish qo‘ymaduq. Qaǯo‘n* (*qayin*) *temish qo‘ymish* – Qarindoshlariga og‘a-ini keldi deyilsa, unga e’tibor berilmadi. Qayin-ona (qayin-ota) keldi deyilgan edi, darrov unga qaradi. Bu maqolni qayin-ona va qayin-otalarni hurmat qilishga qarata kuyovlarga ishlatiladi”; **Qazo‘n-qaznag‘un** (qayin-qaynag‘un) – “Kuyov va kuyovlarning qarindoshlariga aytiladi va qo‘shoq holda ergashtirib ishlatiladi”; “**Tuŋur** – xotinning yaqinlari. Bular aka-ukalar, ota-onalardir”.

Qizig‘i shundaki, qadimgi turkchada quyidagicha uchragan: “**Yazna** – yazna, katta qiz qardosh (opa)ning eri” “**Yaŋga** – yanga. U katta akaning xotini” mazmunidagi so‘zlar O‘rta Osiyo turkiylarida, xususan, mamlakatimiz hududida deyarli o‘zgarmasdan saqlanib qolgan. Jumladan, o‘zbek adabiy tili va shevalarida “yezna”, “yazna” – “pochcha” ma’nosida bo‘lib, uning “yezda”, “jezda”, “jezza” variantlari ham bor.

O‘zbek tilining ko‘pgina shevalarida unutilgan, biroq Mirzacho‘l va Jizzax vohalarida haligacha saqlanib qolgan qarindoshlik atamalaridan bir “baldiz”, “boldiz” so‘zidir. Holbuki, Onado‘li turklari, ozarbayjon, qozoq, no‘g‘oy tillarida bu so‘z keng yoyilib, negizi qadimgi turkchaga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘z haqida “**Baldo‘z** – xotinning singlisi. Erining singlisiga “baldo‘z” deyilmaydi, “singil” deyiladi” deb yozadi. Baldo‘z – qaynsingil (erkak uchun), xotinning singlisi. O‘zbek tilining asosan o‘g‘uz va qipchoq shevalarida (Xorazm, Toshkent, Jizzax, O‘sh, Uzgan) qo‘llaniladi. Mirzacho‘lga Zomindan ko‘chgan aholi orasida “baldiz” so‘zi uchrab, qadimgi turkchadagi so‘z bilan bir xil ma’noda ishlatiladi. Zominda esa ushbu so‘z 2 ta ma’noda: erkak uchun ayolining singlisi yoki yaqin qiz qarindoshi uchun qo‘llaniladi [14. 199].

Xulosa. Mirzacho‘l vohasi o‘zbek aholisi tilida qo‘llaniladigan qarindosh-urug‘chilik atamalari bilan qisqacha tanishib chiqish orqali voha aholisining nafaqat til boyligi, balki oila va qon-qarindoshlik aloqalarining ildizlari qadimiy ekanligiga guvoh bo‘ldik. Vohaning o‘zbek, qozoq va qirg‘iz aholisi orasida etnomadaniy jihatdan umumiylik qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq atamalarning

o‘zaro o‘xshashligida emas, bu masalaga aloqador an’analar va tushunchalarning umumiyligi misolida ham o‘z isbotini topadi.

1-Ilova. Voha aholisida orasida qo‘llaniladigan qarindosh-urug‘chilik atamalari

Xotin-qizlar bilan bog‘liq atamalar	**Ma’nosi**	**Erkaklar bilan bog‘liq atamalar**	**Ma’nosi**
Qiz bola, qizcha	Kichik yoshdagi qiz	*O‘g‘il, bolakay, toy*	Kichik yoshdagi o‘g‘il bola
Qizaloq	Voyaga etmagan qiz (taxm. 8-12 yoshdagi qiz)	*O‘g‘il bola*	Voyaga etmagan o‘g‘il (taxm. 8-12 yoshdagi o‘g‘il bola)
Qiz	O‘smir yoshdagi qiz	*Yigit*	O‘smir yoshdagi o‘g‘il bola
Bo‘y qiz, bo‘y etgan qiz	Turmushga chiqishga tayyor qiz	*Bo‘y yigit, bo‘ydoq, er yigit, el kuyov*	Turmush qurishga tayyor yigit
Non sindirilgan qiz, Unashtirilgan qiz	Biror yigitga turmushga uzatish uchun belgilab qo‘yilagan qiz	*Unashtirilgan*	Biror qiz bilan turmush qurish uchun belgilab qo‘yilagan yigit
Kelin, kelinchak, kelin-poshsha	Turmushga chiqqan, farzand ko‘rish arafasidagi ayol	*Kuyov, kuyov-bola, kuyov-to‘ra*	Turmush qurgan, farzand ko‘rish arafasidagi erkak
Xotin, ayol, boy-bicha	Farzandli ayol	*Er, erkak, boy-vachcha*	Farzandli erkak

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rybatzki W. Some Mongolian words in Özbek (I). Beginning with a-, å-, e-, b-, p-, d-, t- // H. Şirin, B. Gül (eds). Yalım Kaya Bitigi. Osman Fikri Setkaya Armağanı. – Ankara: Türk Kültürünü Araştıra Enstitüsü Yayınları, 2013. – P. 1-12.
2. Koshg‘ariy, Mahmud. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu-lug‘ot it-turk) // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 1- tom. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 386.
3. Koshg‘ariy, Mahmud. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu-lug‘ot it-turk) // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3- tom. – B. 377.
4. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. Mas’ul muharrir Sh.Sh. Shoabdurahmonov. – Toshkent: Fan, 1971. – B. 324.
5. To‘ychiboyev B., Qashqirli Q. Zominning til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 199.
6. Бекетаев К. Казахско-русский словарь. – С. 74.

7. Koshg‘ariy, Mahmud. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu-lug‘ot it-turk) // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3 - tom. – B. 239.
8. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – B. 339.
9. Koshg‘ariy, Mahmud. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu-lug‘ot it-turk) // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 1- tom. – B. 119.
10. Киргизско-русский словар. Составител К.К. Юдахин. Книга 1. А – К. – Фрузе, 1985. – С. 356.
11. Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – B. 124.
12. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. T.; – B. 337.
13. Koshg‘ariy, Mahmud. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu-lug‘ot it-turk) // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3 - tom. – Toshkent: Fan, 1963. – B. 18.
14. To‘ychiboyev B, Qashqirli Q. Zominning til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – Б. 199.